



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" (yangi tahriri)gi O'RQ-404-son Qonuni. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoniga 1-ILOVA, 57,67,68 masadlar. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 21-sonli BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyrug'i. Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda 3593 son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. . <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 5-sonli BHMS "Asosiy vositalar". Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024- yil 14 iyundagi 133-son buyrug'i. Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 9 avgutda 3546-son bilan ro'yxatga olingan. . <https://lex.uz>
5. Садриддин, П., Ахтам, Р., Махбуба, А., Шерзод, К., Гульнора, Р., Ориф, Н., ... и Дилшод, Д. (2025). Наночеситель из двухлигандных липосом с цисплатином и siRNA против PD-L1 при плоскоклеточной карциноме головы и шеи: обзор. Журнал наноструктур , 15 (1), 292-300.
6. Shavkat, A. (2025). Jo'jalar eymeriozi: etiologiyasi, klinik belgilar va oldini olish choralar.
7. Тлепович, Есимбетов Адильбай, Авезимбетов Шавкат и Бауаддинов Камаладдин Карамаддинович. «Qoraqalpog'iston respublikasi xo'jayli tumanida qo'ylarning ichak sestodozlarining tarqalishi va profilaktikasi." *Обеспечение интеграции науки и образования на основе инновационных технологий*. 2.2 (2025): 89-96.
8. ФАНЛАР, Ў. Р., & БЎЛИМИ, А. М. (2023). Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. *Вестник Хорезмской академии Маъмуна*, 4(2).
9. Xolmuratov, I. (2024). Janubiy Qoraqalpog'istondagi birikmali oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari. *IMRAS*, 7(3), 140-144.
10. Xolmuratov, I., Eshanova, T., & Xo'jamuratova, A. (2024, November). TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14235516>. In International scientific and practical conference (Vol. 1, No. 1, pp. 415-418).
11. Xolmuratov, I. (2023). QORAKO'LCHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JUN MAHSULOTLARINING MUHIMLIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 371-374.
12. Холмуратов, И. (2021). Этимологический анализ некоторых ойконимов Южного Каракалпакстана. *Электронный инновационный вестник*, (2), 23-24.

BALIQCILIK XO'JALIKLARINI REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI VA BOSQICHLARI

Dosmuratova Sh.K., Charshanova G.K., Bazarbaev B.T.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Baliqchilik tarmog'i oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda va aholiga oqsilga boy, sifatli baliq mahsulotlari yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi. Baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Buni quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishida ham ko'rishimiz mumkin: O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2017-yil 1-maydagi «Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2939-son qarori, 2018-yil 6-apreldagi «Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3657-son, 2018-yil 6-noyabrdagi «Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4005-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-sentyabrdagi «Baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 719-son, 2018-yil 31-iyuldagi «Baliqchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 606-son qarorlari. Mazkur qarorlarda belgilangan vazifalarni bajarish muhim hisoblanadi.

Baliqchilik xo'jaliklarida ishlarni bir maromda tashkil etishda mukammal rejalashtirish katta ahamiyatga ega. Rejalashtirish - bu rejalarni ishlab chiqish jarayoni va ishlab chiqilgan rejalarni orqali korxonani boshqarishning iqtisodiy usuli. Reja - baliqchilik xo'jaligini rejalashtirish davri oxiridagi kelajakdagi holatining ilmiy asoslangan modeli. Bu prognozga asoslanadi. U rejalashtirish obyektining maqsadini, maqsadga erishish vositalarini ko'rsatadi, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini, ularga erishish yo'llari va vositalarini belgilaydi, ularni amalga oshirish vaqtini va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini belgilaydi. Reja buyruq kuchiga ega. Reja nafaqat baliqchilik xo'jaligi ichidagi iqtisodiyot, balki iqtisodiyotdan tashqaridagi vaziyat, ya'ni soliq va kredit tizimi, tovar va xizmatlar bozoridagi pozitsiyasi, raqobatchilarning niyatlari bilan ham bog'lanishi kerak.

Adabiyotlar sharhi. Xorijlik iqtisodchi olimlar A.S.Antonova, K.A.Aksenovlar fikricha, «Baliqchilik xo'jaliklarini prognozlash va rejalashtirish tizimi deganda korxona mahsulotlari va xizmatlarining asosiy turlarini, uni uzoq muddatli rivojlantirishning eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarini, taklif qilingan uzoq muddatli maqsad va vazifalarni hal qilish uchun eng yaxshi texnik vositalar va tashkiliy usullarni erkin tanlashning ilmiy asoslangan tizimi tushuniladi».

Xorijlik soha mutaxassisi N.V.Mitropolskaya-Rodionova uzoq muddatli rejalashtirish masalalariga to'xtalib o'tgan: «Baliqchilik xo'jaligining istiqbolli uzoq muddatli strategik rejasi quyidagi bo'limlardan iborat: -faoliyatning maqsadi va yo'nalishlari; -uzoq muddatli vazifalar; -asosiy strategiya; funksional strategiyalar, xususan: marketing, ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, tashkiliy o'zgarishlar, moliyaviy, ijtimoiy va ekologik strategiyalar; -eng muhim dasturlarning tavsifi; -tashqi operatsiyalar tavsifi; -kapital qo'yilmalar hajmi va resurslarni taqsimlash; -zaxira strategiyalarini shakllantirish».

Respublikamizdan iqtisodchi olim B.Y.Menglikulov fikricha, «Xo'jalik faoliyatini rejalashtirishda uzoq, o'rta, qisqa muddatli va operativ rejalashtirish jarayoni o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi lozim. Uzoq muddatli rejalashtirish xo'jalikka ko'plab ustunlik va qo'shimcha imkoniyat beradi. Xususan: - xo'jalik rahbarining doimiy ravishda korxona kelajagi to'g'risida o'ylashga majbur etadi va mutaxassislar fikrini shakllantiradi; -xo'jalikning joriy faoliyatida amalga oshiriladigan tadbirlar mutanosibligini ta'min etishga sharoit yaratadi; - xo'jalik faoliyati natijalarining reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslanishi va nazorat uchun imkon yaratadi; - xo'jalik rahbar va xodimlari ishlab chiqarish kelajagining aniq mo'ljalini ko'z oldiga keltiradi; - xo'jalikni tabiiy ofat, resurs ta'minotidagi salbiy o'zgarish yoki bozor kon'yunkturasi o'zgarishiga tayyor turishga undaydi va qisqa muddatli rejalarni va operativ reja ishlab chiqishda "nazorat raqami" vazifasini bajaradi».

Tahlil va natijalar. Baliqchilik xo'jaligini rejalashtirish quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi: a) uni amalga oshirishning moddiy manbalari va bozor talabini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va nisbatlarini belgilash; b) baliqchilik xo'jaligi imkoniyatlari va barcha turdagi resurslardan optimal foydalanishni ta'minlash orqali xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish.

Xo'jalik ichidagi rejalashtirish quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: korxonaning yakuniy va oraliq maqsadlarini aniqlash, maqsadlarga erishish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni aniqlash, ushbu muammolarni hal qilish vositalari va usullarini, zarur resurslarni, ularning

manbalari va taqsimlash usullarini aniqlash.

Bozor munosabatlari sharoitida baliqchilik xo'jaliklarida xo'jalik ichidagi rejalashtirish uzoq va o'rta muddatli strategik rejalashtirish, qisqa muddatli biznes rejalashtirish va ishlab chiqarishni operativ rejalashtirish bilan ifodalanadi.

Istiqbolli uzoq muddatli strategik rejalashtirish baliqchilik xo'jaligining asosiy maqsadlarini aniqlashdan iborat bo'lib, maqsadlarga erishish uchun vositalar va usullarni hisobga olgan holda kutilayotgan yakuniy natijalarni aniqlashga va buning uchun zarur resurslarni ta'minlashga qaratilishi lozim. Uzoq muddatli rejalashtirish 10 yil va undan ko'proq vaqtни qamrab oladi, butun boshqaruv tizimining ishlashiga ta'sir qiladi va muhim resurslarni jalb qilishga asoslanadi. Uzoq muddatli rejalashtirish o'rta muddatli strategik reja uchun asos bo'ladi.

O'rta muddatli strategik rejalashtirish 5 yil davomida ishlab chiqilgan uzoq muddatli strategik rejada belgilangan maqsadlarga erishishdir. O'rta muddatli strategik rejada miqdoriy ko'rsatkichlar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar, asosiy kapitalga investitsiyalar va ularni moliyalashtirish manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar batafsilroq keltiriladi.

Qisqa muddatli biznes rejalashtirish - yillik biznes-rejani ishlab chiqish orqali o'rta muddatli strategik rejada belgilangan maqsadlarni amalga oshirishdir. U rejada ko'zda tutilgan barcha vazifalarni hal qilish, aniq resurslardan foydalanish, shu jumladan yangi texnologiyani joriy etish vositalari va usullarini batafsil ishlab chiqadi.

Biznes-rejalashtirishni ikki jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir: a) baliqchilik xo'jaligini joriy yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy rejasini vazifasini bajaradi. U korxonani rivojlantirishning barcha masalalarini ko'rib chiqadi: iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, tabiatni muhofaza qilish, shuningdek, baliqchilik xo'jaligining o'rta va qisqa muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishining maqsadlari, vazifalari va modelini asoslaydi, yo'llari va mexanizmlarni belgilaydi; ularga erishish uchun zarur resurslarni aniqlaydi. Biznes rejalashtirish operatsion va ishlab chiqarishni rejalashtirish uchun asos hisoblanadi; b) har qanday bitim, loyiha bo'yicha biznes-reja shaklida baliqchilik xo'jaligini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy rejasiga qo'shimcha sifatida ishlaydi. U korxona rivojlanishining barcha masalalarini ko'rib chiqmaydi, balki mahsulotning yangi turini yetishtirishni amalga oshirish, har qanday operatsiyani amalga oshirishga qaratiladi va 1-3 yil muddatga tuziladi. Birinchi yil ko'rsatkichlari har oy uchun, ikkinchi yil chorak uchun, uchinchi yil yil uchun rejalashtiriladi.

Baliqchilik xo'jaliklarida operativ rejalashtirish mavsumiy ishlar uchun jadvallar bilan ifodalanadi.

Baliqchilik xo'jaligini istiqbolli uzoq muddatli strategik rejalashtirish - bu nafaqat mahsulot va resurslar, balki bozordagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda, korxonani rivojlantirish bo'yicha (10 yil va undan ko'proq) uning uzoq muddatli strategik maqsadlarini aniqlash (mehnat, moddiy), balki tabiiy, ekologik, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy va boshqa omillarni aniqlashdir.

Uzoq muddatli reja quyidagilarga mo'ljallangan bo'lishi lozim: investitsiyalarning yo'nalishlari va hajmini hamda ularni moliyalashtirish manbalarini belgilash; texnik yangiliklar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mahsulotlarni yangilash; kadrlar siyosatini takomillashtirish; maqsadlarga erishish uchun korxona va uning alohida bo'linmalarini boshqarishni tashkil etish va takomillashtirish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, baliqchilik xo'jaligining uzoq muddatli strategik rejasini ishlab chiqish bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- *tashqi muhitni tahlil qilish va baholash.* U makro muhitni o'rganishni, ya'ni, mamlakat iqtisodiyotining holati, iqtisodiyotni huquqiy tartibga solish, tabiiy muhit va resurslar, jamiyatning ijtimoiy va madaniy tarkibiy qismlari, ilmiy-texnikaviy darajasi, infratuzilmasi va h.k., shuningdek, atrof-muhitning, ya'ni, xaridorlar, yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, mehnat bozori, moliya va kredit tashkilotlari va boshqalarning korxonalarga bevosita ta'sirini o'z ichiga olishi lozim;

- *ichki muhitni tahlil qilish va baholash*. U ishlab chiqarish, marketing, resurslarni tahlil qilish va baholashni, mahsulotni bozorga ilgari surishni o'z ichiga oladi. Xo'jalikning o'z maqsadlariga erishish jarayonida ishonishi mumkin bo'lgan ichki imkoniyatlari va salohiyatini aniqlashga imkon berishi kerak;

- *xo'jalikning iqtisodiy siyosatini aniqlash*. Baliqchilik xo'jaligining siyosati maksimal foyda olishga, xo'jalik faoliyati esa, tovar baliqlarini hovuzlar va qafaslarda yetishtirish, shuningdek, uni qisman qayta ishlash va sotishga qaratilishi lozim;

- *xo'jalikning maqsad va vazifalarini belgilash*. Baliqchilik xo'jaligining asosiy iqtisodiy maqsadlari quyidagilardan iborat: iqtisodiy o'sish, ya'ni korxonalarning ko'proq va sifatli mahsulotlar va tovarlar ishlab chiqarishni ta'minlashga intilishi; to'liq bandlik, bu ishlashga tayyor va qodir bo'lgan barcha ishchilar uchun mos kasb imkoniyatini nazarda tutadi; barcha mavjud cheklangan ishlab chiqarish resurslarining ulardan foydalanish uchun maqbul minimal xarajatlar bilan maksimal rentabelligini tavsiflovchi iqtisodiy samaradorlik; iqtisodiy erkinlik, bu barcha mutaxassislar va ijrochilarga o'z faoliyat sohasida yuqori darajadagi mustaqillik va ijodkorlikka ega bo'lish imkonini beradi; daromadlarni adolatli taqsimlash, barcha toifadagi xodimlarga munosib haq to'lashni ta'minlashni o'z ichiga olishi zarur. Baliqchilik xo'jaligining asosiy vazifalari: ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ya'ni, foydaning ortishi, tannarxning va energiya zichligining kamayishi; korxonaning to'liq ishlab chiqarish quvvatiga erishishi va boshqalar;

- *asosiy strategiyani aniqlash va strategik alternativni tanlash*. Asosiy strategiya quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: a) korxonaning ishlab chiqarish, sotish, investitsiyalar va boshqalar hajmini oshirish niyatini nazarda tutuvchi o'sish strategiyasini; b) barqarorlashtirish strategiyasi, sotish va daromadlarning beqarorligi sharoitida korxona faoliyati rejasini; v) korxonaning chuqur inqirozi sharoitida qo'llaniladigan omon qolish strategiyasini o'z ichiga olishi lozim.

Shunday qilib, baliqchilik xo'jaliklari ichki rejalashtirishda uzoq va o'rta muddatli strategik rejalashtirish, biznes-rejalashtirish va operativ rejalashtirishga alohida e'tibor qaratishi va yuqorida keltirilgan ketma-ketlikda amalga oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 apreldagi «Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3657-son qarori. <https://lex.uz/docs/3642735?otherlang=1>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 noyabrdagi «Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4005-son qarori. <https://lex.uz/docs/4046069>
3. Антонова, А.С., Аксенов, К.А. Разработка метода планирования бизнес-процессов на основе имитационно-эволюционного моделирования: монография / А.С. Антонова, К.А. Аксенов. – М.: Издательский дом Академии Естествознания, 2020. – 160 с.
4. Menglikulov B. Biznes-reja uni tuzishda nimalarga e'tibor qaratish lozim? / "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali. – Toshkent, 2004. -№ 9. Sentyabr. – B. 12-13.
5. ФАНЛАР, Ў. Р., & БЎЛИМИ, А. М. (2023). Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. *Вестник Хорезмской академии Маъмуна*, 4(2).
6. Xolmuratov, I. (2024). Janubiy Qoraqalpog'istondagi birikmali oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari. *IMRAS*, 7(3), 140-144.
7. Xolmuratov, I., Eshanova, T., & Xo'jamuratova, A. (2024, November). TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM OLIISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14235516>. In International scientific and practical conference (Vol. 1, No. 1, pp. 415-418).

8. Xolmuratov, I. (2023). QORAKO'LCHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JUN MAHSULOTLARINING MUHIMLIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR. Science and innovation, 2(Special Issue 8), 371-374.
9. Холмуратов, И. (2021). Этимологический анализ некоторых ойконимов Южного Каракалпакстана. Электронный инновационный вестник, (2), 23-24.

RESPUBLIKAMIZDA AZÍQ-AWQAT QÁWIPSIZLIGIN TÁMIYINLEWDE INNOVACIYALIQ TEXNOLOGIYALAR.

Nasirov B.M., Dauletova Q.O., Umirzakova A.Q.

*Samarqand mámleketlik veterinariya medicinası, sharwashılıq hám biotexnologiyalar
universiteti Nókis filiali*

Azıq-awqat qáwipsizligi pútkil dúnya mámleketleri aldında turǵan eń áhmietli wazıypalardan biri. BMSH da búgin azıq-awqat ónimlerin jetistiriw hám olardı bólistiriwboyınshaqatnaslardı pútkilley ózgeritiw waqtı kelgenin atap ótpekte. Sebebi, ideal jaǵdayda awıl, toǵayhám balıqshılıq xojalıqları hámmeni azıq-awqat penen tolıq támiyinlewhámadamlarushınqolaylı dáramat dáregin jaratıp beriwge uqıplı. Qalaberse, bunday jaǵdayda insanmáplerijolında hám awıl xojalıǵı rawajlanadı, hám qorshaǵan ortalıqtı qorǵawboyınshailajlardıńorınlanıwı támiyinlenedi. Bizge belgili, azıq-awqat sanaatı milliy ekonomikanıńazıq-awqatónimlerin islep shıǵaratuǵın keń tarmaqlı taraw esaplanıp quramında gósh-sut, may, balıqónimleri, un-jarma, miywe-palız ónimleri konservaları, hár túrli ishimlikler, qumsheker, nanhám basqa azıq-awqat ónimlerin islep shıǵaratuǵın kárxanalardı óz quramınabirlestirgen. Adamzat jámiyeti rawajlanıwı dawamında tábiyat jaratqan baylıqlardanpaydalanǵan. Jáhan xalqı sanınıń artıp barıwı azıq-awqat ónimlerine bolǵan talabınıńartırıwınaalıp keldi. Búgingi kúnde dúnya mámleketleri aldında turǵan tiykarǵı wazıypalardan biri sapalı azıq-awqat ónimlerin jetistiriw hám onıń qáwipsizligin támiyinlew máselesi bolıp tabıladı. Házirgikúnde insaniyattıń tábiyatqa unamsız múnásibetinde bolıp atırǵanlıǵı, oganantropogentásirdin kúsheyip barıwı, rawajlangan hám rawajlanıp atırǵan mámleketler arasındaazıq-awqat penen támiyinleniw dárejesiniń proporciyasızlıǵı, klimat ózgeriwleri sıyaqlı birqatarunamsız faktorlardı keltiriwi múmkin. Dushshi suw, toǵaylar, biologiyalıq hár túrlilikkeskinpátlerde azayıp barmaqta. Topıraqtıń ónimdarlıǵı tómelenip, jerlerdiń meliorativlikjaǵdaytómelenip barmaqta. Nátiyjede, búgingi kúnde jáhan xalqınıń 1/10 bólegi yamasa derlik800millionnan aslamı toynsha awqatlanbay atırǵan bolsa, 2050-jılǵa barıp bul muǵdar 2mlrd. adamǵa jetiwi kútilmekte. Bul jaǵday mámleketler xalqın azıq-awqat penen jeterli támiyinlew menen birge azıq-awqat qáwipsizligin támiynat sıyaqlı áhmietli mashqaladı paydaetpekte. Bes jasqa shekem bolǵan balalar arasındaǵı ólimniń 45 procenti áyne toynbay awqatlanıwhám ekologiyalıq jaqtan taza bolmaǵan azıq-awqat ónimlerin paydalanıwnátiyjesindekelipshıqpaqta. Jáhan ekonomikasınıń globallasıwı hám xalıqtıń turaqlı ósip barıwı, atapaytqanda, "2050-jılǵa barıp jáhan xalqı 10 milliard adamǵa jetiwi nátiyjesinde xalıqtı sapalı azıq-awqatónimleri menen támiyinlew, awıl xojalıǵı tarawında intensiv túrde shiyki zat jetistiriw, azıq-awqat ónimlerin islep shıǵarıwshı tarmaqlardıń aymaqlıq quramın jetilistiriw, jańaóndiristúrlerinen paydalanıwdı talap etpekte" Bul óz gezeginde azıq-awqat qáwipsizligintámiyinlew, azıq-awqat sanaatı tarmaqların jaylastırıw ornı hám usılın duris tańlawdı hámbasekigeshıdamlı, ekologiyalıq taza tutınıw ónimlerin islep shıǵarıw, innovaciyalıq ekonomikanıqalıplestiriw hám basqarıwda klaster sistemasınan nátiyjeli paydalanıwdı talap etedi. Joqarıdaǵılardan kelip shıǵıp mámlekettiń azıq-awqat qáwipsizligin támiynattıntómendegibólimlerin ajratıp kórsetiw múmkin:

- jeterli dárejede qáwipsiz hám toyımlı azıq-awqattıń turaqlı bolǵanlıǵı;